

## KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHGA YO‘NALTIRILGAN MUSTAQIL TA‘LIMNING TARKIBIY TUZILISHI VA USULLARI

Turdiyeva Xayriniso Aliyevna

Fayziyeva Hurriyat Baxtiyor qizi

Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi o‘qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14412173>

**ANNOTATSIYA:** Mustaqil ta‘lim jarayonida fanga oid bilimlarni qidirish, o‘rganish, ularni anglab yetish, mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish, bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish jarayoni yuzaga kelib, uni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish muayyan metodlardan foydalanishni talab etadi. Ushbu maqolada kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirilgan mustaqil ta‘limning tarkibiy tuzilishi va usullari haqida fikr yuritilgan.

**KALIT SO‘Z:** mustaqil ta‘lim, mustaqil ish, o‘qitish turi.

R.X.Djurayev rahbarligida yozilgan “pedagogik atamalar lug‘ati”da “Mustaqil ta‘lim” tushunchasi “insonning o‘zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan shaxsiy harakatlari jarayoni”<sup>1</sup> deb ta‘riflangan bo‘lsa, J.Xasanboevning “Pedagogika fanidan izohli lug‘at”ida esa “mustaqil ta‘lim”ga olingan bilim, ko‘nikma va malakani mustahkamlash, qo‘shimcha materialni o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli” sifatida qaralgan<sup>2</sup>. P.Q.Husanboyeva ta‘rifiga ko‘ra, mustaqil ta‘lim - o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir<sup>3</sup>.

Mustaqil ta‘limning yana bir tavsifini V.Okonning ishlarida uchratish mumkin: “mustaqil ta‘lim – o‘qitishning shunday turiki, maqsad, mazmun, sharoit va vositalar subyektning o‘ziga bog‘liq”<sup>4</sup>. Bu yondashuvda subyekt faoliyati bilan bog‘liq uch asosiy holatni: o‘qitish maqsadi, mazmuni va vositalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. A.P.Pshebelskiy va M.I.Zabortshikovalarning fikricha, mustaqil ta‘lim - pedagogning maktabda amaliy faoliyat yuritish, o‘z kasbiy ishlab chiqarishini ko‘tarish uchun maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan va uzluksiz mustaqil ishlash jarayoni<sup>5</sup>.

T.A.Ilyushovanning tadqiqot ishlarida “mustaqil ta‘lim - pedagogning kasbiy ishlab chiqarishini orttirish shakllaridan biri. Bu pedagogning o‘z nazariy bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun maqsadga yo‘naltirilgan ishi bo‘lib, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy talablari asosida yangi kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish va qo‘llashni taqozo etadi” deb ta‘rif berilgan<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Djurayev R.X., O‘.Q.Tolipov va boshqalar. Pedagogik atamalar lug‘ati. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. Toshkent– 2008, 135 b., 49-b

<sup>2</sup> Hasanboyev J., X. To‘raqulov va boshqalar. “Pedagogika fanidan izohli lug‘at” Toshkent-“Fan”- 2008 y., 229 b., 117-b

<sup>3</sup> Husanboyeva Q.P. Adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Diss. ... ped.fan.dok. – Toshkent: O‘zPFITI, 2004. – 261 b.

<sup>4</sup> Оконь В. Введение в общую дидактику. - М.: Высшая школа, 1990.-32 с

<sup>5</sup> Заборщикова Н.М. Самообразование молодого учителя как условие совершенствования его профессиональной деятельности: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Л.: , 1989. - 29 с.

<sup>6</sup> Илюшова Т.А. Самообразование молодого педагога как условие профессионального роста // <https://multiurok.ru>

G.A.Jeleznyakova tilga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitishda mustaqil ta'limning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritadi<sup>7</sup>.

Mustaqil ish bu shunday ishki, bevosita o'qituvchi ishtirokisiz bajariladigan, lekin uni bajarishda, shu vaqt uchun maxsus taqdim etilgan, bunda talabalar ongli ravishda o'z maqsadlariga erishish, o'z kuchlaridan foydalangan holda va u yoki bu shaklda aqliy yoki jismoniy (yoki ikkalasi birgalikda) harakatlar natijasini ifodalaydi.

Ayni vaqtda ilmiy va o'quv adabiyotlarda "mustaqil ta'lim olish", "Mustaqil o'qish", "mustaqil ish" tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

"Mustaqil ta'lim – auditoriyada olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash hamda fanga oid (xususiy) kompetentsiyalarini rivojlantirish, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadida tashkil etiladigan o'qitish shakli", mustaqil ish esa – "o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi" sifatida talqin qilingan. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir<sup>8</sup>.

O'tkazgan ilmiy-tadqiqot ishlarimiz va adabiyotlar tahlili asosida biz mustaqil ta'lim va mustaqil ishga quyidagicha ta'rif berdik: Mustaqil ta'lim – bu o'qituvchi yordamida yoki yordamisiz muayyan vazifa(masala, muammo)ni mustaqil o'rganish asosida tashkil etiladigan, tizimlashtirilgan, rejalashtirilgan,

loyihalashtirilgan turli ta'limiy vositalardan foydalangan holda turli metodlar va texnologiyalar qo'llaniladigan faoliyat turi, ya'ni, o'ziga xos ta'lim shaklidir (mavzu yuzasidan turli topshiriqlarni bajarish, konspekt, referatlar, esse, maqola, tezislar, slaydlar, savolnomalar, didaktik tarqatmalar tayyorlash, tajriba qo'yish, kuzatish ishlarini olib borish, Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish, kurs va bitiruv malakaviy ishlari ustida ishlash jarayonida, malakaviy va dala amaliyotlari davomida olib boriladigan mustaqil faoliyatlar natijasida mustaqil ta'lim tarkib topadi).

Mustaqil ish esa – o'qituvchi rahbarligida ta'lim oluvchining fanning mazmunini o'rganishga, unga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlarni bajarishga, fandan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini yanada kengaytirishga va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, bevosita talabalar tomonidan ma'ruza, amaliy, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar davomida turli usullar yordamida bajariladi (masalan, vaqtinchalik mikropreparat tayyorlash, konspekt qilish, rasm chizish, esse yozish, loyiha tayyorlash va boshqalar).

Aytish mumkinki, mustaqil ta'limni ijobiy natijalarga erishishi tanlangan mavzu ma o'quv materiallarining mazmuni, ilmiyligi, tizimlili, qiziqarliligi, amaliyot bilan uzviyligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek, beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ko'p qirraliligiga, ijodiy xarakteriga hamda uni tashkil etishda qo'llaniladigan vosita, metod va shakllarga bog'liq bo'lib, bunda talabalarning intilishi, qiziqishlari va mas'uliyatiga asosiy e'tiborni qaratish zarur.

### References:

1. Talabalarni mustaqil ta'limni kredit-modul tizimida tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha

<sup>7</sup> Железняка Г. А. Особенности самостоятельной работы студентов при обучении иностранным языкам в неязыковом вузе // Балтийский гуманитарный журнал. 2015. № 3 (12). С. 41-44.

<sup>8</sup> Talabalarni mustaqil ta'limni kredit-modul tizimida tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha metodik Yo'riqnoma. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Tabiiy fanlar fakulteti. 2020-2022-йй. <https://tspu.uz>

metodik Yo'riqnoma. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Tabiiy fanlar fakulteti. 2020-2022-йй. <https://tspu.uz>.

2. Djurayev R.X., O'Q.Tolipov va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti.Toshkent– 2008, 135 b., 49-b
3. Hasanboyev J., X. To'raqulov va boshqalar. "Pedagogika fanidan izohli lug'at" Toshkent-"Fan"- 2008 y., 229 b., 117-b
4. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Diss. ... ped.fan.dok. – Toshkent: O'zPFITI, 2004. – 261 b.
5. kizi Tohirova, M. A., & Tursunnazarova, E. T. (2022). BASIC LITERARY ELEMENTS OF THE XX CENTURY ENGLISH AND UZBEK SHORT STORIES (BASED ON HERBERT BATES AND SAID AHMAD'S SHORT STORIES). *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 192-195.
6. ugli Tojimurodov, H. Y., & Tursunnazarova, E. T. (2022). BEOWULF–THE EARLIEST EPIC POEM IN ENGLISH FOLKLORE. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 189-191.
7. kizi Aliyeva, G. A., & Tursunnazarova, E. T. (2022). ANALYSIS OF THE STORY 'LUCKY ARTIST' BY ENGLISH AUTHOR SOMERSET MAUGHAM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 172-175.
8. kizi Abdullayeva, L. Z., & Tursunnazarova, E. T. (2022). CHRISTOPHER MARLOWE IS "THE FATHER OF ENGLISH TRAGEDY". *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 168-171.
9. kizi Abdukodirova, K. A., & Tursunnazarova, E. T. (2022). LITERARY VERSION OF ENGLISH LANGUAGE AND CHOOSING ITS TEACHING BALANCE. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 164-167.
10. kizi Daulbayeva, J. R., & Tursunnazarova, E. T. (2022). UNFORGETTABLE MEMORIES OF CHILDHOOD THE ARTISTIC ANALYSIS OF THE NOVEL "KITE RUNNER" WRITTEN BY KHALID HUSAINI. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 181-183.
11. kizi Gadayeva, G. F., & Tursunnazarova, E. T. (2022). USEFUL CREATIVE TECHNIQUES PROPOSED FOR TEACHING CHILDREN. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 176-180.
12. Ishankhodjayeva, G. T., & Qodirova, Z. M. (2024). SUBACUTE SCLEROSING PANENSEPHALITIS IN CHILDREN: MANIFESTATION OF COGNITIVE DISORDERS. *Scientific Journal Of Medical Science And Biology*, 3, 108-113.
13. Maxamatjanova, N. M., Mirxaydarova, F. S., & Mirxaydarova, S. M. (2023). THE IMPORTANCE OF DIABETES IN THE DEVELOPMENT OF DEPRESSION. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(8), 9-10.
14. Batirov, D. B. (2024). AMIR TEMUR'S CAMPAIGNS AGAINST TOKHTAMISH KHAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 120-124.
15. Ugulbekovich, I. J. (2024). AMIR TIMUR: THE BRIGHT GENIUS OF THE MOVAROUNNAHR. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 79-83.
16. kizi Usmonova, Y. N., & Tursunnazarova, E. T. (2022). SHAKESPEARE'S INFLUENCE ON OTHER AUTHORS. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 201-

204.

17. Оконь В. Введение в общую дидактику. - М.: Высшая школа, 1990.-32 с

18. Заборщикова Н.М. Самообразование молодого учителя как условие совершенствования его профессиональной деятельности: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Л.: , 1989. - 29 с.

19. Илюшова Т.А. Самообразование молодого педагога как условие профессионального роста // <https://multiurok.ru>

20. Железнякова Г.А. Особенности самостоятельной работы студентов при обучении иностранным языкам в неязыковом вузе // Балтийский гуманитарный журнал. 2015. № 3 (12). С. 41-44.